



UDK: 371.036:378.978:782(575.1)

Nodira PIRMATOVA,
O'z.MMSI dotsenti
E-mail: pirmatovanodira952@gmail.com

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent R.Oripova taqrizi asosida

METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' SOLO PERFORMANCE SKILLS: THEORETICAL AND PRACTICAL APPROACHES

Annotation

This article analyzes the theoretical foundations of developing solo performance skills among students, including vocal techniques, stage culture, and pedagogical methods. It explores the effectiveness of practical lessons in music education, student individuality, criteria for repertoire selection, and the application of modern technologies. The study also highlights individualized approaches and the psychological aspects of stage performance in the educational process.

Key words: Solo performance, vocal training, stage culture, student performance, methodology, practical training, music, namud's, traditional art, maqom music.

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ СОЛЬНОГО ИСПОЛНЕНИЯ У СТУДЕНТОВ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

Аннотация

В статье рассматриваются теоретические основы формирования навыков сольного исполнения у студентов, включая вокальные техники, сценическую культуру и педагогические методы. Анализируется эффективность практических занятий в музыкальном образовании, раскрытие индивидуальности студентов, критерии подбора репертуара и применение современных технологий. Также освещаются индивидуальный подход и психологические аспекты сценического исполнения в учебном процессе.

Ключевые слова: Сольное исполнение, вокальная подготовка, сценическая культура, студенческое выступление, методика, практическое обучение, традиционного искусства, маком, высшая точка исполнения, музыка.

TALABALARDA YAKKAXON IJROCHILIK MALAKASINI OSHIRISH METODIKASI: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR

Annotatsiya

Maqolada yakkaxon ijrochilik malakalarini talabalarda shakllantirishning nazariy asoslari, vokal texnikasi, sahna madaniyati va pedagogik metodlar chuqur tahlil etiladi. Musiqa ta'limida amaliy mashg'ulotlar samaradorligini oshirish, talaba shaxsiyatini ochish, repertuar tanlash mezonlari va zamonaviy texnologiyalarni qo'llash yondashuvlari o'rganiladi. Shuningdek, o'quv jarayonida individual yondashuv va sahna ijrosining psixologik jihatlarini ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: Yakkaxon ijrochilik, vokal tayyorgarlik, sahna madaniyati, talaba ijrosi, metodika, amaliy mashg'ulot, musiqa, an'anaviy musiqa, maqom, namud.

Kirish. Musiqa san'atining eng nozik va chuqur psixologik ifodaviy ko'rinishlaridan biri bu yakkaxon ijrochilikdir. Talabalar uchun bu yo'nalishda mukammallikka erishish nafaqat texnik, balki ma'naviy va emotsional yetuklikni ham talab qiladi. So'nggi yillarda ushbu sohaga oid bir qator metodik adabiyotlar, pedagogik tavsiyalar va zamonaviy tajribalar asosida olib borilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, yakkaxon ijrochilikni rivojlantirish jarayoni kompleks va bosqichma-bosqich yondashuvni talab qiladi.

Yakkaxon ijrochilikni o'rgatishda muvaffaqiyatli natijalarga erishish uchun:

- Talabaning vokal imkoniyatlari chuqur tahlil qilinishi;
- Repertuarlar shaxsga mos tanlanishi;
- Ovoz, ifoda va sahna madaniyati uyg'unligi ta'minlanishi;
- Innovatsion usullar, ayniqsa zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi kengaytirilishi lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yakkaxon ijrochilik – bu ijrochini shakllantirishdagi asosiy vositalardan biri bo'lib, uni metodik asosda o'rgatish san'atni kelajagiga xizmat qiladi.

Yakkaxon ijrochilikning nazariy asosi va pedagogik jihatlarini

Yakkaxon qo'shiqchilik san'ati o'z mohiyatiga ko'ra, ijrochi shaxsiyatining to'laqonli ifodasi, emotsional yetkazuvchanlik va texnik mukammallik uyg'unligiga tayangan hodisadir. Talabaning vokal imkoniyatlarini to'g'ri aniqlash, u bilan mos keladigan musiqa asarini tanlash va sahna ifodasi orqali bu asarni jonlantirish – pedagogik jarayonning markaziy nuqtasini tashkil etadi.

Bunda o'qituvchi talabaga ovoz sozlash, nafas olish texnikasi, artikulyatsiya va diksiya mashqlarini bosqichma-bosqich o'rgatadi. Ovoz diapazonining tabiiy imkoniyatlariga asoslangan yondashuv, xatarsiz va samarali ijrochilikka zamin yaratadi.

Repertuar tanlash va ifoda vositalarini shakllantirish

Repertuar – bu ijrochi shaxsining ko'zgusi. Repertuar tanlashda talabani faqat texnik jihatdan qiynamaydigan, balki emotsional jihatdan unga yaqin bo'lgan asarlarga ustuvorlik berish zarur. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, talaba repertuarni tushunib, mazmunini his qilgan hollarda, uning ijrosi tabiiy va hissiy boy bo'ladi.

Talabaga avval xalq qo'shiqlari, milliy romantik asarlar, maqom namunalari boshlanib, asta-sekin murakkab formali asarlarga o'tiladi. Repertuar bilan ifoda

vositalarini – pauza, urg'u, ovoz kuchi, ohangda to'qlinlanish kabi jihatlarni mustahkamlash muhim sanaladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Vokal tayyorgarlik va texnik mashg'ulotlar tizimi

Vokal tayyorgarlik talabani yakxaxon ijrochilikdagi asosiy tayanchidir. Amaliy darslarda ovoz mashqlari – legato, stakatto, glissando, artikulyatsion murakkabliklar ustida alohida ishlash zarur. Shuningdek, vokal cho'qqilariga chiqishda mushaklar va nafas tizimining sinxronligi muhim ahamiyatga ega.

Nazoratli mashg'ulotlar jarayonida ovozda charchoq, siqilish yoki intonatsion pasayishlarni oldini olish uchun mashqlar vaqtida ovozga yuklama bermaslikka e'tibor qaratiladi. Vokal mashg'ulotlar individual reja asosida har bir talabani ovoz xususiyatiga ko'ra belgilanadi.

Sahna madaniyati va artistik ifoda shakllanishi

Yakxaxon ijroda talabani sahnaga tayyorlash muhim bosqichlardan biridir.

Sahna madaniyati – bu nafaqat tashqi ko'rinish, balki ichki ruhiy tayyorgarlikni ham o'z ichiga oladi. Sahnadagi holat, mimika, harakat, nigoh va tana tili orqali talaba o'z ijrosini kuchaytiradi.

Pedagogik tajribalar asosida shuni aytish mumkinki, sahna chiqishlaridan oldingi psixologik holatni nazorat qilish uchun maxsus muhit yaratish zarur. Masalan, yakka chiqish oldidan mini-mashg'ulotlar, psixologik tayyorgarlik, o'ziga ishonch mashqlari ijobiy natijalar bergan.

Amaliy mashg'ulotlar samaradorligi

Vokal ijrochilikda amaliy mashg'ulotlar asosiy o'quv jarayonini tashkil etadi. Darslarning samaradorligini oshirish uchun quyidagi tartib keng qo'llaniladi:

- 10 daqiqa – ovoz va nafas mashqlari
- 20 daqiqa – repertuar bilan ishlash
- 15 daqiqa – ifoda vositalari va dramatik talqin
- 5 daqiqa – mini-chiqish yoki baholash

Talaba har bir mashg'ulotda o'zini namoyon qilishga intiladi. Dars oxirida tinglovchilar (guruhdoshlar yoki o'qituvchi) tomonidan fikr-mulohaza bildirish talaba o'z ustida ishlashiga rag'bat beradi.

Innovatsion yondashuvlar va texnologik qo'llov

Zamonaviy texnologiyalar yakxaxon ijrochilikni o'rgatishda yangi imkoniyatlar ochmoqda. Video tahlil, audio yozuv orqali tahlil qilish, onlayn ustozlar bilan master-klasslar, raqamli sahna dasturlari talabani o'zini baholash va rivojlantirishiga katta hissa qo'shadi.

Talabaga o'z ijrosini yozib eshitis, xatolarni aniqlash va ularni takrorlamaslik imkoniyati – bu o'quv jarayonini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqadi. Raqamli platformalardagi ijrochilikni tahlil qilish ham ijodiy kenglikni oshiradi.

Bu xususida talabalarga maqom xonandaligida avj namudlarini ijro ettirish qoidalari ham nazariy va amaliy

yondashuvni talab etadi. Ana shu yakka ijrochilikdagi metodik yondashuvlarim ham mavjud bo'lib ular quyidagicha:

1. Analitik yondashuv – Avjning kuy-matn uyg'unligi, ohangda cho'qqi yaratish uslubi va ritmik dinamikasi tahlil qilinadi.

2. Step-by-step (bosqichma-bosqich) yondashuv – Dastlab avjdan oldingi kirish qismlarini mukammal o'zlashtirib, so'ng avjga o'tiladi. Bu usul talabani ijroda ishonchli bo'lishga xizmat qiladi.

3. Takroriy tinglash va taqlid qilish – Avj namunalarini ustozlar ijrosida takroran tinglab, fonetik, intonatsion va emotsional ohangni ichki his etishga yo'naltiriladi.

4. Vokal mashqlar orqali tayyorgarlik – Nafas nazorati, diapazonni kengaytirish, ovoz barqarorligini ta'minlovchi mashqlar asosiy vositadir.

Tajribaviy mashg'ulotlar davomida aniqlanishicha, talabalarga avjlarni o'rgatish jarayonida quyidagi elementlarga e'tibor berilganda yaxshi natijalar kuzatilgan:

• Vokal plastiklik – Talaba ovoz diapazonini kengaytirishda avj qismlarini mukammal chiqara boshlaydi.

• Ovoz balandligi va ohang nazorati – Avjda nota siljishlarining to'g'ri ijrosi uchun ovozga bosim bermasdan, yumshoq lekin barqaror tovushlar ishlatilganida ifoda kuchayadi.

• Maqom ruhini tushunish – Avj faqat texnik cho'qqi emas, balki badiiy-estetik yuqorilash nuqtasidir.

• Musiqiy dinamika kuchayishi – ovoz balandligi, tempo va emotsional kuchayish bilan ifodalanadi.

• Xonandaning vokal imkoniyatlarini ko'rsatish – diapazon, nafas uzunligi, tovush balandligi va intonatsion aniqlik.

• Matnning badiiy yuki oshadi – aynan avjda she'riy ifoda chuqurlashadi, badiiy urg'u tushiriladi.

• Tinglovchi qalbiga ta'sirimg cho'qqisi – xonandaning ichki hissiyoti va ovoz kuchi tinglovchida ilhom uyg'otadi.

Avjning pedagogik qiyinchiliklari shundaki, bunda talaba nafaqat texnik jihatdan, balki emotsional jihatdan ham "yetilmagan" bo'lsa, ijro sun'iy va notabiiy chiqadi. Shu sababli, o'qituvchi avjga tayyorlov bosqichida talabani psixologik tayyorgarligini, ichki quvvatini ham nazoratga olishi zarur. Shuningdek, har bir talabani ovoz diapazoni, bo'y-basti, yurak urish ritmi, nafas olish uslubi kabi jismoniy holatlari ham individual baholanib, unga mos avjlar tanlanishi lozim.

Maqom xonandaligida avj namudlarni o'rgatish: solishtirma tahliliy jadval

Quyidagi jadvalda maqom xonandaligida avj namudlarni o'rgatishdagi ilmiy va metodik jihatlar solishtirma tarzda tahlil qilingan. Jadvalda pedagogik usullar, vokal tayyorgarlik, estetik yondashuv va psixologik ta'sir kabi elementlar qiyoslab o'rganiladi.

Ko'rsatkichlar	Nazariy yondashuv	Amaliy-metodik yondashuv	Estetik va psixologik ta'sir
Avj tushunchasi	Musiqiy cho'qqi sifatida o'rganiladi, ritmik va ohangiy tahlil	Ijro namunalarini tahlil qilish, bosqichma-bosqich o'rganish	Tinglovchida kuchli emotsional ta'sir uyg'otish
Talabaga yondashuv	Maqom tuzilmasi asosida umumiy nazariy bilim beriladi	Individuallashtirilgan vokal mashqlar, ijro tahlili	Talabani hissiy dunyosini uyg'otish, ishonch berish
Mashg'ulotlar shakli	Maqom nazariyasi, kuyning struktura tahlili	Vokal texnika, intonatsion tozalik, nafas uslubi	Ichki ruhiy holatni uyg'otishga qaratilgan motivatsion yondashuv
Natijadorlik	Talaba avjning nazariy mohiyatini anglaydi	Ijro aniq, ovoz toza, diapazon kengayadi	San'atga bo'lgan ichki mehr kuchayadi, o'ziga ishonch ortadi
Baholash mezonlari	Teoretik savollar, maqom bo'laklarining tahlili	Ijroda tovush aniqligi, avjda barqarorlik	Obrazli ifoda, hissiy yetkazish darajasi

Maqom xonandaligida avj namudlarni talabalarga o'rgatish — bu oddiy vokal mashqlar emas, balki musiqiy fikrlash, madaniy estetikani shakllantirish, ichki tuyg'ularni

baqadam o'rgatish, emotsional tayyorgarlik, vokal mashg'ulotlar va original ijrolarni tahlil qilish uslublarini uyg'un qo'llash yuqori natijalarga olib keladi.

Talabalarga avjning maqomdagi o'rni, musiqiy qurilishi, ritmik xususiyatlari va matn bilan bog'liqligi haqida tahliliy darslar o'tiladi. Bu ularning eshitish, musiqiy tafakkur va estetik sezgi qobiliyatini shakllantiradi.

Vokal tayyorgarlik

Diapazonni kengaytiruvchi mashqlar – ayniqsa yuqori notalarni nazoratli va toza ijro etish uchun, nafas boshqaruvi – avjda uzoq notalar, siljishli frazalarni ijro etish uchun kuchli va boshqariladigan nafas kerak. Artikulyatsiya va diksiya – so'zlarning tiniqligi avjda eng katta talabdir.

Analitik-tahliliy ijro

Avjdan oldingi va keyingi qismlarni bir-biriga bog'lab, talaba musiqa davomiyligini his qilishga o'rgatiladi. Avjdagi intonatsion burilishlar, sekundali siljishlar, tezlik o'zgarishlari alohida tahlil qilinadi.

Avj ijrosida pedagogik yondashuvlar

Individual yondashuv

Har bir talabaning ovoz tembri, diapazoni, temperamentiga qarab avj tanlanadi. Ayrim talabalarga “Bayot”, boshqalarga “Segoh” yoki “Chorgoh” maqomidagi avjlar mos bo'lishi mumkin.

“Ustoz-shogird” yondashuvi

Maqom pedagogikasida avj o'rgatishda eng samarali usul — bu ustoz ijrosini tinglash, taqlid qilish, tahlil qilish, qayta ijro etishdan iborat bosqichli o'rgatishdir. Har bir avj variantining o'ziga xosligi va ustozona betakrorligi talabaning ichki ijodiy sezgisini o'stiradi.

“Ichki ifoda” usuli

Avj ijrosida muvaffaqiyat kaliti — bu texnikadan ko'ra ko'proq ichki tuyg'ularni tovush orqali etkazishdir. Shu boisdan, o'qituvchi talabani she'riy obraz, obrazli fikrlash, musiqa orqali ifoda berishga yo'naltiradi.

Xulosa va takliflar. Avj namudlarni o'rgatishda uchraydigan muammolar

- Ovozning yetishmasligi – noto'g'ri nafas, noto'liq vokal tayyorgarlik sababli avjda ovoz “ochilmaydi”.

- Emotsional tayyorgarlik yo'qligi – talaba texnik jihatdan avjga chiqqani bilan, ichki his uyg'onmasa, ijro sun'iy chiqadi.

- Qo'rquv yoki tortinchoqlik – avjda chiqish xatosidan qo'rqish yoki o'ziga ishonmaslik ijroni pasaytiradi.

- Tinglash madaniyati yetishmovchiligi – talaba avjlarning klassik namunalarini eshitmasdan o'rgansa, ifoda qashshoq chiqadi.

5. Amaliy mashg'ulotlar misolida kuzatilgan tajribalar

2023–2025-yillar davomida maqom ixtisosligi bo'yicha tahsil olayotgan 2–3-bosqich talabalari orasida o'tkazilgan tajribada quyidagi holatlar qayd etilgan:

- Avjni bosqichma-bosqich (kirish-qo'shiq-avj) o'rganish talabaning ijrosida ishonch uyg'otgan.

- Har bir avjni mustaqil tarzda yozib olib tinglash, ustoz bilan solishtirish orqali ijroda sezilarli yuksalish kuzatilgan.

- Avjdan keyin talabaning ijodiy ruhiyoti ko'tarilib, u boshqa maqomlarda ham o'zini dadil tutgan.

Yakkaxon ijrochilik talabalarda nafaqat texnik, balki ruhiy, hissiy va estetik kamolot vositasi sifatida ahamiyatlidir. Ushbu yo'nalishda erishilgan muvaffaqiyatlar pedagogik yondashuv, to'g'ri metod tanlovi va individual ijodiy rivojlanish bilan chambarchas bog'liq. Musiqa ta'limida yakkaxon ijrochilikni o'rgatishda:

- bosqichma-bosqich metodik yondashuv,
- individual ovoz imkoniyatlariga mos repertuar tanlash,

- sahna chiqishlarini doimiy mashq qilish,
- zamonaviy texnologiyalardan foydalanish asosiy mezon bo'lishi lozim.

Maqom xonandligida avj namudlarni talabalarga o'rgatish — bu nafaqat vokal, balki ruhiy-psixologik va estetik tayyorgarlikni ham o'z ichiga olgan murakkab, ammo zarur jarayondir. To'g'ri metodika, o'qituvchining individual yondashuvi va mustahkam eshitish-mashq asosida talaba nafaqat texnik jihatdan avjga chiqadi, balki chinakam xonanda sifatida o'zini ifoda eta oladi. Maqom pedagogikasida avj o'rgatish — bu san'at ichida san'atdir.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev R. “Yakkaxon qo'shiqchilik”, Toshkent, 2023.
2. Umarov B. “Yakkaxon qo'shiqchilik”, Toshkent, 2023.
3. Rajabov A. “O'zbek vokal ijrochiligi asoslari”, Toshkent, 2020.
4. Kenjaev M. “Sahna madaniyati va artistik ifoda”, 2021.
5. Sharipova M. “Talabalar vokal mashg'ulotlarida zamonaviy metodlar”, 2022.
6. Nazarova D. “Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar”, 2019.
7. Aliyeva L. “Estrada vokali asoslari”, 2021.
8. Toshmatova S. “Musiqa ta'limida repertuar tanlash mezonlari”, 2023.
9. Rasulov O. “Ovoz ustida ishlash metodikasi”, 2022.
10. Saidov F. “Talabalarda sahna chiqishlarini shakllantirish”, 2020.